

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019. Tar. 78.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

ALMURADOVA ROHATOY MUSURMON QIZI

O‘ZBEK MILLIY KURASH TARIXI
(Surxon vohasi misolida)

07.00.01 – O‘zbekiston tarixi

Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi
AVTOREFERATI

Termiz – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertasiya avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)

Almuradova Rohatoy Musurmon qizi

O‘zbek milliy kurash tarixi (Surxon vohasi misolida).....5

Алмурадова Рохатой Мусурмон кызы

История узбекской национальной борьбы (на примере Сурханского оазиса).....22

Almuradova Rohatoy Musurmon qizi

History of Uzbek national wrestling (in the case of the Surkhan oasis).....41

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....45

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019. Tar. 78.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

ALMURADOVA ROHATOY MUSURMON QIZI

O‘ZBEK MILLIY KURASH TARIXI
(Surxon vohasi misolida)

07.00.01 – O‘zbekiston tarixi

Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi
AVTOREFERATI

Termiz – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertasiyası mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.1.PhD Tar1016 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Termiz davlat universitetida bajarilgan

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.terdu.uz) hamda "ZiyoNET" Axborot-ta'lim portali (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Tursunov Saypulla Narzullayevich
tarix fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Pardayev Toshkentboy Rajabovich
tarix fanlari doktori, dotsent;

Nazirov Baxtiyor Safarovich
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot:

Qarshi davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Termiz davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD 03/30.12.2019. Tar.78.02 raqamli ilmiy kengash Ilmiy kengashning 2023 yil « 9 » ^{16.02} soat 16.00 da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 190111, Termiz shahri, Barkamol Avlod ko'chasi, 43 uy. Tel.: (99876) 221-74-55, faks: (376) 221-71-17, ye-mail: termizdu@umail.uz

Dissertatsiya bilan Termiz davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (123 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 190111, Termiz shahri, Ter.DU Barkamol Avlod ko'chasi, № 43 uy. Tel.: (99876) 224-15-82, faks: (376) 221-74-55, 221-71-17 ye-mail: termizdu@umail.uz.

Dissertatsiya avtoreferat 2023 yil « 30 » ⁰¹ kunida tarqatildi.
(2023 yil « 30 » ⁰¹ dagi 1 raqamli reyestr bayonnomasasi).



R.E.Xalikova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi o'rinbosari, t.f.d, professor.

H. E. Xolmuminov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, t.f.n. dosent

E.O.Qobulov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash huzuridagi ilmiy seminar raisi, t.f.d professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi annotasiyasi)

Dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda yuz berayotgan globallashayotgan jarayonida sport davlatlarning rivojlanishi va xalqaro miqyosda milliy nufuzini oshirishda yetakchi omillardan biri sanalib, rivojlangan davlatlar jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish yuzasidan o'zlarining strategiyalarini ishlab chiqmoqda. Ayniqsa, Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi va xalqaro sport tashkiloti (FIFA) tomonidan sportni o'yinlari metodikasini standartlash, tizimli sport musobaqalarini tashkil etish borasida mukammal ishlar amalga oshirilmoqda.

Dunyoning AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya, Italiya, Ispaniya, Braziliya va Yaponiya kabi mamlakatlarining ilmiy tadqiqot markazlari tomonidan kurash sport sohasining inson salomatligidagi o'rni, aholi orasida sog'lom turmush tarzini yo'lga qo'yishda kurash sportidan keng foydalanish, ushbu sport turlari bo'yicha musobaqalarni tashkil etish va musobaqa shartlarini me'yorlashtirish, kurash bo'yicha tashkil etilayotgan xalqaro sport musobaqalarida ishtirok etuvchi davlatlar safini kengaytirish, kurash sporti yo'nalishida kadrlar tayyorlash, ushbu tizimni modernizatsiyalash va ommalashtirish masalalariga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Yangi taraqqiyot strategiyasi asosida amalga oshirayotgan islohatlar jarayonida O'zbekistonda sportning kurash sohasini keng targ'ib qilish, kurashni xalqaro sport maydonlarida tanitish, kurash sport ob'yektlarini qurish, kapital ta'mirlash va jihozlashning samarali mexanizmlari joriy qilinmoqda. Bu esa, mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sport sohasida to'plangan ko'p yillik tajribani ilmiy jihatdan tadqiq qilish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri ekanligini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-martdagi "Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-5368-son, 2020-yil 24-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-5924-son farmonlari, 2017-yil 2-oktyabrdagi "Kurash" milliy sport turiini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-3306-son, 2020-yil 3-noyabrdagi "Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va ilmiy salohiyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4877-son va shu singari boshqa me'yoriy huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish jarayonini o'rganishda mazkur dissertasiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovasion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" dasturining ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Muammoni ilmiy tadqiq etish darajasini aniqlashda mavzuga oid adabiyotlar va ilmiy tadqiqot ishlarini ikki guruhga ajratib tahlil etish maqsadga muvofiq.

Birinchi guruhga sovet davrida mavzuga doir e'lon qilingan ishlarni, ikkinchi guruhga mustaqillik yillarida mavzuga oid ishlarni kiritish mumkin. Birinchi guruhga oid adabiyotlar sovet hukumati davrida yaratilgan adabiyotlar bo'lib, ularda

kommunistik mafkuraning ta'siri yaqqol sezilib turadi. Ushbu adabiyotlarda O'zbekistonda kurash bo'yicha jismoniy tarbiya va sport tarixining ayrim jihatlari tadqiq qilingan bo'lib, sohada qo'lga kiritilgan yutuqlarga keng o'rin berilgan holda muammo va kamchilik haqida hech qanday fikr bildirilmagan. Qolaversa, o'rganilayotgan mavzuning umumiy jihatlari madaniy hayotning bir qismi sifatida qisqacha to'xtalib o'tilgan¹. Xulosa shuki, sovet davrida nashr qilingan adabiyotlarda o'rganilayotgan mavzu alohida tadqiqot ob'yekti sifatida tadqiq etilmagan.

Ikkinchi guruh adabiyotlar mustaqillik yillarida yaratilgan tadqiqot bo'lib, ushbu adabiyotlarda sportning ayrim turlari tarixi yoritilgan va bu tadqiqotlar ko'proq ilmiy-ommabop xarakter kasb etadi.²

¹Мухаммедов С.М. Культура Советского Узбекистана. – Ташкент: Фан, 1960; Шоломицкий Ю.С. Физическая культура и спорт в Узбекистане за 40 лет советской власти (1917-1957 гг.). Автореф.дисс. канд. пед. наук. –Ташкент,1960.;Ўша муаллиф. Физическая культура и спорт в Советской Средней Азии и сопредельных странах Востока. Автореф.дисс. докт. пед. наук. –Ташкент,1972.; Суник А.Б. Развитие физической культуры в общеобразовательных школах Узбекистана за 50 лет. Автореф.дис. канд. пед. наук. – Львов. 1963.; Мухитдинов М. Ўзбекистонда шахмат маданиятининг тарихи. Тарих фанлари номзоди диссертацияси. –Тошкент, 1978.; Рахимбаев З.Р. Расцвет культуры в Узбекистане. – Ташкент: “Узбекистан”, 1961; Уралов А. Создание и развитие советской культуры Бухарской народной Советской Республики (1920-1924 гг).Автореф.дисс...канд.ист.наук. – Ташкент, 1962; Игамбердиев Х. Развитие культуры в Узбекской ССР в годы социалистического строительства (1925-1941 гг). (по материалам Сурхандарьинской и Кашкадарьинской областей). Автореф.дисс... канд.ист. наук. – Ташкент, 1964; Бешимов Р. Победа культурной революции в кишлаках Узбекистана (1933-1941 гг). Авторев. дисс... канд.ист.наук. – Ташкент, 1968; Исхаков М.Ф. Дружба народов СССР в развитии физической культуры и спорта в Узбекистане. Автореф.дис. канд. ист. наук. –Ташкент, 1976.Исмоилов Р., Шоломицкий Ю.С. Ўзбекистонда физкультура тарихи. Ўқув қўлланма. – Тошкент: Ўқитувчи, 1969.;Кадырова Я. Подъем культурного уровня кишлаков Узбекистана (1959-1965 гг). Автореф. дисс... канд. ист. наук. – Ташкент, 1970; Боршин Н.А., Исхоков М.Ф. Ўзбекистон комсомолининг жумхурияда жисмоний тарбия ва спортни ривожлантириш бўйича фаолияти, (1924—1974 йиллар). — Тошкент, «Ёш гвардия», 1975.; Эштухтаров Х. Культура села Узбекистана. – Ташкент”Мехнат”, 1977; Курманов А. Ўзбек спортчиларининг халқаро алоқалари. – Тошкент: Фан, 1978; Обидов Т. Ўзбек полвонлари. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти. 1979.; Иброҳимов Ў. Ўзбекистонда студентлар спортининг тарихий тараққиёти, ҳозирги ва келажак истикболлари. – Ташкент: Фан, 1982; Тошпўлатов Ж. Ўзбекистон ССР, Сурхондарё области педагогик коллективлари ва спорт ташкилотларининг ёшлар ўртасида жисмоний тарбия ва спортни ривожлантириш ишларини такомиллаштиришдаги фаолиятлари. – Тошкент: “Ўзбекистон”,1982; Ўша муаллиф. Сурхондарёда жисмоний тарбия ва спорт тараққиёти. – Термиз: “Жайхун”, 1989.; Отаев А.Ў. Кураш. – Тошкент: Ўқитувчи. 1987.;Яровский А. Поддубный А. Ўзбекистоннинг халқаро спорт алоқалари. – Ташкент: “Ўзбекистон”, 1980.;Тоймуродов О.Р. Ўзбек миллий кураши. – Тошкент: Тиббиёт нашриёти. 1990.

²Абдумаликов Р., Эшназаров Х.Э. Аждодлар жисмоний маданият тарихини ўрганиш масалалари. Ўқув қўлланма. – Тошкент: Ўқитувчи. 1993.; Абдумаликов Р., Ақромов А.К. Ўзбекистонда жисмоний маданият ва спорт тарихини ўрганиш масалалари. Ўқув қўлланма. – Тошкент. 1994.; Абдумаликов Р. Жисмоний маданият ва спорт ихтисослигидаги назарий талабларни бошқарувчилик фаолиятларига ўргатишнинг амалий асослари. – Тошкент: ЎзДЖТИ нашриёти. 1994.; Ботиров Х. Ўзбекистонда жисмоний тарбия тарихи. – Тошкент: Ибн Сино нашриёт - матбаа бирлашмаси. 1993.; Ақромов А.К. Ўзбекистонда жисмоний маданият ва спорт тарихи. Ўқув қўлланма. Ўқув қўлланма. – Тошкент: Ўқитувчи. 1997. ; Тошпўлатов Ж., Жумакулов А. Сурхон полвонлари. – Термиз: “Жайхун”, 1995; Тошпўлатов Ж., Сурхондарёда жисмоний тарбия ва спорт. – Термиз, 1991;Маҳмуд Саттор. Ўзбек удумлари. – Тошкент: “Чўлпон”, 1993; Юнусов Т.Т., Абдумаликов Р., Ярашев К.Д. Ассолом Олимпиада. – Тошкент: ЎзДЖТИ нашриёти. 1993.;Қорабоев У. Ўзбекистон байрамлари. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 1999; Иброҳимов Ў. Спорт ва кадрлар. – Ташкент: “Янги аср авлоди”, 2009; Исмоилов Х. Ўзбек тўйлари. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 1994; Бўриев О. Ўзбек халқи бой кадрларлари. – Қарши: “Насаф”, 2005; Раҳимов М. Шарқ алмалари: халқ ўйинлари ҳақида. – Тошкент: “Мерос”, 2002; Мустафоқулов Р. Ўзбек халқ ўйинлари. – Термиз: “Жайхун”, 2001.;Тошпўлатов Ж. Ўзбек кураши. – Термиз, 2005; Тошпўлатов Ж, Мустақулов Р. Алпомишлар афсона эмас. – Тошкент: “Янги аср авлоди” НММ, 2007; Ражабов О. Белида белбоғи бор. – Тошкент: “Янги аср авлоди” НММ, 2005;Норбоев Х. Сурхон полвонлари. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2010; Керимов Ф.А. Спорт кураши. – Тошкент: “Янги аср авлоди” НММ, 2005; Тўрабоев Б. Даминов И. Дзю-до. – Тошкент: “Тафаккур”, 2014; Турсунов С, Пардаев Т., Бегимкулов О. Ўзбек миллий кураши:тарихи ва анъаналари. Рангли альбом. – Тошкент: “Янги нашр”, 2015; Турсунов С, Пардаев Т, Бегимкулов О. Ўзбек миллий кураши: тарихи ва анъаналари. – Термиз: “Сурхон нашр”, 2015; Бегимкулов О. Жисмоний тарбия ва

Mustaqillik yillarida kurash bo'yicha jismoniy tarbiya va sport tarixiga bag'ishlab dissertasiyalar ham himoya qilindi. Ana shunday tadqiqotlar sarasiga B.Mambetov va Z.Abdullayevalarning ilmiy ishlarini misol qilib keltirish mumkin³.

Mavzuning tarixshunoslik qismiga xulosa yasab ta'kidlash mumkinki, O'zbekistonda kurash sport tarixi alohida hudud kesimida hanuzgacha mustaqil tadqiqot ob'yekti sifatida tadqiq etilmagan. Nashr qilingan ilmiy, ilmiy-ommabop adabiyotlarda o'rganilayotgan mavzuning ayrim jihatlari yoritilgan. Shu sababli ham Surxondaryoda kurash sporti tarixini mustaqil tadqiqot ob'yekti sifatida o'rganish maqsadga muvofiq.

Tadqiqot mavzusining dissertasiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertasiya ishi Termiz davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq ATD-1 "O'zbekiston davlatchiligi tarixi: munosabatlar va qarashlar" (2015 – 2021) mavzusidagi tadqiqot doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. O'zbek milliy kurash tarixini Surxondaryo viloyati misolida ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

o'zbek milliy kurashining shakllanishi va uning tarixiy asoslarini tarixiy manbalar, tarixshunoslik adabiyotlari hamda ilmiy-ommabop nashrlar asosida ochib berish;

Surxon vohasida milliy kurash tarixini shakllanishi, rivojlanish boschiqlari, muammolar yechimi haqidagi ma'lumotlarni o'rganish;

milliy kurashni jahon sport turiga aylantirish masalalari, rivojlantirish muammolari va yechimlarini ko'rsatib berish;

o'zbek milliy kurashi bilan bog'liq turnirlar va ushbu sport turi yuzasidan tashkil etilgan tadbirlarni yoritib berish;

xalq dostonlarida milliy kurash qahramonlari to'g'risidagi ma'lumotlarni tarixiy ma'lumotlar asosida ochib berish;

Surxon polvonlarining milliy kurash ravnaqiga qo'shgan hissasini hamda ustoz-shogirdlik an'analari haqidagi tarixiy ma'lumotlarni yoritib berish;

Kurash sport maktablarni ommalashtirish asosida yosh polvonlarni jahon arenasiga olib chiqish borasida davlat siyosatini yo'nalishlari hamda dasturlarini amaliy natijalarni yoritib berish;

Kurashni milliy o'zlikni anglash, urf-odatlar, qadriyatlar va marosimlardagi ahamiyatini tarixiy etnologik manbalar asosida yoritib berish.

спорт. – Тошкент: "Турон-икбол", 2019; Махмуд Аблуфайз, Рўзи Мустафо. Тоғлардек яшаса одам. – Тошкент: "Янги аср авлоди" НММ, 2005; Ботирова Х. Жисмоний тарбия ва спорт тарихи. – Тошкент, 1993; Абдумаликов Р., Абдуллаев А., Норкулов Ш. Жисмоний тарбия илмини такомиллаштириш масалалари. – Тошкент: "Ўзбекистон", 1996; Хўжаев Ф. Ўзбекистонда жисмоний тарбия. – Тошкент: Ўқитувчи нашриёти. 1997.; Нормуродов А. Ўзбек миллий ўйинлари. – Тошкент: "Тафаккур", 1999; Ўзбек кураши довуғи. – Тошкент: Шарқ нашриёти. 2002.; Маҳкамджанов К, Нурматов Ф, Иноземесева Л., Рустамов Л. Спорт байрамларини ташкил қилиш ва ўтказиш методикаси. – Тошкент: "Турон-Икбол", 2008; Сайдуллаев Н.Б. Современное состояние культуры Узбекистана и перспективы её развития. Автореф. дис. канд. истор. наук. – Ташкент. 2002.; Тошпулатов Ж. Чавандоз ўзбегим йигитлари. Янги аср авлоди. Т., 2009; Рўзиев А.Н., Азизов Н. Ўзбек миллий бел олиш кураш тарихидан. – Тошкент: Фан ва технология, 2010.

³Мамбетов Б.Ж. Традиции физической культуры и спорта Каракалпакстана и проблемы возрождения. XX-й век. Автореф. Дисс.. канд ист. Наук. – Нукус, 2006; Абдуллаева З.А. История формирования и развития физической культуры и спорта в Узбекистана (1991-2006 гг.). – Ташкент, 2009.

Tadqiqotning ob'yekti sifatida O'zbek milliy kurashi tarixi hamda an'alarini targ'ib qiluvchi dostonlar, sovet davri va mustaqillik yillarida milliy kurashning holati va ravnaqini yoritib beruvchi arxiv materiallari, davriy matbuot materiallari hamda O'zbekiston milliy kurash federasiyasi va boshqa sohaga mutasaddi tashkilotlarning hisobot materiallari, shuningdek Surxon polvonlarning sport tarixiga qo'shgan hissasi va faoliyatini yoritishda dala tadqiqot materiallari tanlangan.

Tadqiqotning predmeti. O'zbek milliy kurashining rivojlanish tarixi va tarqqiyotidagi muhim bosqichlarni, istiqlol yillarida milliy kurashning ravnaqi hamda jahon sporti turiga aylanishi bilan bog'liq amalga oshirilgan tadbirlar, milliy kurash bo'yicha o'tkazilgan milliy va xalqaro turnirlar, sohaning moddiy-texnik ta'minotini hamda kadrlar bilan ta'minlash, o'tkazilgan sport musobaqalari va ularning natijalarini tadqiq qilish tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida tarixiylik, xronologik izchillik, qiyosiy tahlil, muammoli hududiy yondoshuv, tizimlashtirish, statistik tahlil va og'zaki tarix usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat.

Qadimgi Baqtriya qabrlaridan topilgan qadahda bellashayotgan ikki kurashchining tasvirlanganligi, "To'maris", "Askar qiz" afsonalarida bahodirona kuchga ega bo'lgan ayollar to'g'risida hikoya qilinganligi, o'g'uz eliga hokimlik qilgan Barchin Salur, Kunin Kerkli, Qug'adli singari ayollarning bo'lganligi, "Futuvvatnomayi sultoni", "Badoye' ul vaqoye'", "Tib qonunlari", "Devoni lug'atit turk", "Boburnoma" asarlarida, "Alpomish", "Go'ro'g'li", "Avazxon", "Rustam", "To'g'anoy", "Kuntug'mish" dostonlarida polvonlik xislatlari aks etganligi aniqlandi;

Surxoncha kurashda keng qo'llaniladigan oyoq bilan chalib yiqitish, "tanishing", "ta'zim", "o'rta", "kurash", "to'xta", "yonbosh", "qo'shsha", "halol!", "halol yiqitdi!", to'g'onoq", "qoqma", "o'rama", "norpo'sh", "chala", "tanbeh", "dakki", "g'irrom", "bekor", "vaqt", oyoqqa chalmasdan "uchadan", "kiftdan", "qaytarma", "burama", "ko'tarib burib tashlash" "iyindan oshirib tashlash" va "siltab otish" kabi tarixiy ma'lumotlar dalillandi;

bevosita kurash bilan bog'liq "Polvonpir", "Yo Piryo'yvaliy!", kurash tushuvchilar, tosh o'ynovchilar, loy tashuvchilar ("novandozlar"), zambil ko'taruvchilar, dorbozlar, gurzi ko'taruvchilar va zo'rlar, kurashning o'n ikkita odobi, "bakovul", kurashning "buxorocho" usuli, "farg'onacha kurash", yunon-rum kurashi, qozoqcha "kures", tatarcha "kuresh", ozarbayjoncha "gyulesh", yoqutcha "kurdasan-tustuu" haqidagi tarixiy ma'lumotlar aniqlandi;

Termizda Al-Hakim at-Termiziy xotirasiga bag'ishlab o'tkazilgan xalqaro kurash turniri, Janubiy Koreya, Kanada, Yaponiya, Hindiston, AQSH, Monako va Rossiyada o'zbek kurashini tanilishi, Buyuk Britaniyaning Bedford shahrida kurash xalqaro turniri, Fransiyaning Xenday shahrida bo'lib o'tgan "O'zbekiston Prezidenti Gran-pri" 1-xalqaro turnirida o'zbek polvonlarining yutuqlari aniqlandi.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

O'zbek milliy kurash tarixida to'plangan tajriba umumlashtirilib, respublikada ushbu sport turini transformasion jarayonlarga moslab modernizasiya qilishga doir tavsiyalar ishlab chiqilgan;

O'zbek milliy kurashini yanada takomillashtirish xususan, kurash sport tashkilotlarini moliyalashtirish, sohani malakali mutaxassis kadrlar bilan ta'minlash va kurashchilarni tayyorlash hamda ularning xalqaro arenalarda g'olib bo'lishini ta'minlash bilan bog'liq jihatlarni tahlil qilish maqsadida soha tarixi va hozirgi kundagi ahvoliga doir so'rovnomalar o'tkazish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan;

O'zbek milliy kurashi tarixiga oid qator hujjatlar o'rganilib, yangi ma'lumotlar ilmiy muomalaga kiritilgan;

O'zbekistonning yangi tarixini o'qitishda sport va sport musobaqalarini yoritish bilan bog'liq amaliy tavsiya va takliflar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertasiya ishida tarix fanida tan olingan yondoshuv va usullarning qo'llanilgani, ko'plab birlamchi manbalar va ilmiy adabiyotlardan foydalanilgani hamda xulosa, taklif va tavsiyalarining amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzulmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati O'zbekistonda, xususan Surxondaryo viloyatida sovet hokimiyati hukmronligi davrida milliy kurash sohasidagi holat, milliy sport turlariga e'tiborning pasayishi, jahon sport musobaqalarida mahalliy millat vakillarining chiqq olmaslik sabablari, mustaqillik yillarida o'zbek milliy kurashida amalga oshirilgan islohotlar va sohada qo'lga kiritilgan yutuqlarni o'rganish orqali jismoniy tarbiya va sport tarixi to'g'risida ilmiy-nazariy bilimlarni yanada chuqurlashtirish, ushbu masalaga doir ilmiy xulosalarni amaliyotga joriy etish bilan izohlanadi.

Dissertasiyaning amaliy ahamiyati milliy kurash borasida orttirilgan tajribaga tayangan holda soha bo'yicha kadrlar tayyorlash, kurash bilan shug'ullanishni ommaviy harakatga aylantirish, milliy kurash bo'yicha o'tkazilgan respublika va xalqaro musobaqalarida sportchilarimiz qo'lga kiritgan yutuqlarining mazmun mohiyatini Surxondaryo viloyati polvonlari faoliyati yuzasidan keltirilgan ma'lumotlar asosida jismoniy tarbiya va sport tashkilotlari o'zlarining g'oyaviy-tarbiyaviy, ma'rifiy va targ'ibot ishlarida foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'zbekiston jismoniy madaniyat va sport tarixi tadqiq etilishi bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy xulosa va takliflar asosida:

Qadimgi Baqtriya qabrlaridan topilgan qadahda bellashayotgan ikki kurashchining tasvirlanganligi, "To'maris", "Askar qiz" afsonalarida bahodirona kuchga ega bo'lgan ayollar to'g'risida hikoya qilinganligi, o'g'uz eliga hokimlik qilgan Barchin Salur, Kunin Kerkli, Qug'adli singari ayollarning bo'lganligi, "Futuvvatnomayi sultoni", "Badoye' ul vaqoye'", "Tib qonunlari", "Devoni lug'atit turk", "Boburnoma" asarlari to'g'risidagi ma'lumotlardan foydalanildi (O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasining 2022-yil 24-noyabrdagi 43-330-48-son ma'lumotnomasi). Natijalar milliy o'zlikni anglashga yordam berish bilan bir qatorda, «Alpomish», «Go'ro'g'li», «Avazxon», «Rustam», «To'g'anoy», «Kuntug'mish» dostonlaridagi polvonlik xislatlari haqidagi yangi ma'lumotlar bilan boyishga xizmat qiladi;

Surxoncha kurashda keng qo'llaniladigan oyoq bilan chalib yiqitish, "tanishing", "ta'zim", "o'rtaga", "kurash", "to'xta", "yonbosh", "qo'shsha",

“halol!”, “halol yiqitdi!”, “to‘g‘onoq”, “qoqma”, “o‘rama”, “norpo‘sh”, “chala”, “tanbeh”, “dakki”, “g‘irrom”, “bekor” kabi tarixiy ma‘lumotlardan foydalanildi (O‘zbekiston Respublikasi Sportni rivojlantirish Vazirligining 2022 yilning 24 noyabrdagi 06-01/06/13/8319-son ma‘lumotnomasi). Natijada, voha polvonlarini jahon bo‘yicha erishgan g‘alabalari, Termizda Al-Hakim at-Termiziy xotirasiga bag‘ishlangan kurash, Janubiy Koreya, Kanada, Yaponiya, Hindiston, AQSH, Monako va Rossiyada o‘zbek kurashini tanilishi, Buyuk Britaniyaning Bedford shahrida kurash xalqaro turniri, Fransiyaning Xenday shahrida bo‘lib o‘tgan “O‘zbekiston Prezidenti Gran-pri” 1-xalqaro turnirida o‘zbek palvonlarni yutuqlari aniqlashga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi. Ushbu tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqotning natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertasiya mavzusi bo‘yicha jami 15 ta ilmiy maqola nashr qilingan. O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestasiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyasi asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan nashrlarda 5 ta hamda chet el jurnallarida 5 ta maqola, 2 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida maqolalar chop etilgan.

Dissertasiyaning tuzilishi va hajmi. Tadqiqot kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar hamda ilovalardan iborat. Dissertasiyaning tadqiqot qismi 115 betni tashkil etadi.

DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o‘rganilganlik darajasi, maqsad va vazifalari, tadqiqot ob‘yekti, predmeti, tadqiqotning ilmiy yangiligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, aprobasiyasi, natijalarning joriy qilinishi, e‘lon qilinganligi hamda tarkibiy tuzilishi tavsiflangan.

Tadqiqotning birinchi bobi **“O‘zbek milliy kurashi tarixi va an‘analari”** deb ataladi. Unda o‘zbek milliy kurashining shakllanishi va uning tarixiy asoslari hamda Surxon vohasida milliy kurash tarixi yoritiladi.

O‘zbek milliy kurashining tarixi juda qadimga borib taqaladi. Chunonchi, Qadimgi Baqtriya qabrlaridan topilgan idishlarning sirtiga o‘z raqibining oyog‘idan chalayotgan bahodir tasvirlangan, boshqa bir shunday idish sirtiga kurash tushayotgan ikki alpning tasvirini ko‘rish mumkin⁴. Surxon vohasidan topilgan bronza davriga oid silindrsimon sopol idishda ikki polvon va ulardan biri ikkinchisini kurash usulida chalayotgani tasvirlangan. Shuningdek, miloddan oldingi III asrga oid haykalchada ikki kurashchi bir-birining belbog‘idan ushlab turgani aks ettirilgan⁵. Atoqli o‘zbek olimi, akademik A.Asqarovning tadqiqotlariga ko‘ra, o‘zbek kurashining yoshi kamida 2,5-3 ming yilga borib taqaladi⁶.

⁴ Сарианиди В.И. И здесь говорил Заратуштра. – Москва: 1992. – С.92.

⁵ Турсунов С., Пардаев Т., Бегимкулов О. Ўзбек миллий кураши: тарихи ва анъаналари. Термиз, «Сурхоннашр», 2015. –Б. 24.

⁶ Аскарлов А.А. Ўзбек миллий курашининг археологик материалларда акс этиши. / Марказий Осиёда анъанавий ва замонавий этномаданий жараёнлар. – 2 қисм. –Тошкент, 2005. – Б. 3-13.

Qadimgi zamonlarda turkiy xalqlarda kuchli, botir, polvon kishilarga nisbatan *alp* soʻzi ishlatilgan. Qadimgi turkiy tilda «alp» – 1. Mohir mergan; 2. Qahramon, bahodir, bek; 3. Dovyurak, qoʻrqmas, epchil; 4. Mardlik, jasorat singari tushunchalarni beradi⁷. Qadimgi turkiy hukmdorlar shu nom bilan atalganlar. Masalan, Mahmud Koshgʻariy va Yusuf Xos Hojibda mashhur qahramon Alp Er Toʻngʻaning nomi keltiriladi.

Oʻrta asrlar davrida yashab ijod etgan ulugʻ mutafakkirlar – Ibn Sinoning “Tib qonunlari”, Mahmud Qoshgʻariyning “Devoni lugʻatit turk”, Alisher Navoiyning “Hamsa”, “Holati Pahlavon Muhammad”, Zayniddin Vosifiyning “Badoyeʼ ul vaqoyeʼ”, Husayn Voiz Koshifiyning “Futuvvatnomayi sultoniyy”, Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarlarida milliy kurashimiz toʻgʻrisida qimmatli maʼlumotlar berilgan.

XIII asrning dongʻi ketgan polvonlaridan biri Pahlavon Mahmudni (1247-1322) xalqimiz hozirgacha alohida hurmat va ehtirom bilan tilga oladi. Pahlavon Mahmud asli xorazmlik boʻlib, poʻstindoʻzlik kasbi bilan shugʻullangan. Bu kishining nomi nafaqat Turon yurtida, balki Eron, Hindiston va Sharqning koʻpgina mamlakatlarida ham mashhur boʻlgan. Pahlavon Mahmud tasavvufning javonmardlik tariqatining yetakchilaridan biri sanalgan va Puryoyvaliy nomi bilan ham mashhur boʻlgan. «Charogʻi hidoyat»da “Puryoyvaliy” soʻzi “pahlavonlar piri”ning nomi sifatida izohlanadi⁸.

XVI-XIX asrlar davomidagi oʻzaro talatoʻp va bosh-boshdoqliklar zamonida ham xalq oʻz sayl va yigʻinlarini kurash musobaqalarisiz oʻtkazmagan. Shu davrda ham elning orini oladigan pahlavonlar koʻplab yetishib chiqqan. Jumladan, Ashtarxoniylar davrida Samarqand hokimi boʻlgan Yalangtoʻshbiy bahodir janglarga hech qanday zirhli kiyim kiymasdan kirgan va kurashda ham abjir pahlavon boʻlib, bunyodkorlik bobida ham oʻzidan munosib iz qoldirib, Registon maydonidagi Sherdor va Tillakori madrasalarini bunyod ettirgan⁹.

Sovetlar davrida oʻzbek milliy kurashini xalq turmush tarzidan sunʼiy ravishda siqib chiqarishga harakat qilindi. Uning oʻrniga grek-rim kurshi, erkin kurash, sambo singari kurash turlarini joriy etishga harakat qilindi. Biroq zoʻravon tuzum sharoitida ham xalq polvonlarini unutmadi, toʻy tomoshasi, bayram va sayllari kurash bilan fayz oldi.

Yurtimiz polvonlari birinchi bor 1933 yilda SSSR miqyosida oʻtkazilgan IV-yunon-rim musobaqasida qatnashib yaxshi natijalarga erishdilar¹⁰. 1934-1938 yillarda oʻtkazilgan sport musobaqalarida oʻzbek polvonlari kuchli oʻnlikdan joy oldi. 1936 yilda Toshkent shahrida milliy kurash seksiyasi ochildi. Ushbu seksiyaga mashhur polvon Asqar Otayev rahbarlik qildi. 1936 yilda Oʻzbekiston polvonlari Tatariston polvonlari ustidan gʻalabaga erishdi. 1937 yilda Toshkentda kurash boʻyicha ilk bora respublika birinchiligi oʻtkazildi. Ushbu kurashda 120 dan ortiq polvon kuch sinashdi¹¹.

⁷ Древнетюркский словарь. –Ленинград: Наука, 1969. –С. 36.

⁸ Сирожуддин Алихони Орзу. Чароғи хидоят. – Душанбе: Ирфон, 1992. –С. 52.

⁹ Абу Тохирхожа. Самария. - Т., 1991. – Б. 42.

¹⁰ Ўзбекистон миллий архиви, Р-2310 фонд, 1 -рўйхат, 3128-иш, 83-варак.

¹¹ Отаев А.Ў. Кураш. – Б.120.

1970 yildan e'tiboran kurash bo'yicha sport ustasi va ustalikka nomzod unvonlarini berish ta'sis etildi¹². O'sha yildan boshlab O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya institutida belbog'li kurash bo'yicha mutaxassislar tayyorlana boshladi¹³. Shuni alohida ta'kidlash kerakki kurashning belbog'li kurash usuli Farg'ona vodiysi, Toshkent shahri va Toshkent viloyati, Sirdaryo hamda Jizzax viloyatlarida ommalashgan. Belbog'li kurash usuli xalq orasida "farg'onacha kurash" ham deb yuritiladi. Farg'onacha kurashda polvonlar to'n kiyib belbog' bog'lab, bir-birlarining bellaridan ikkala qo'li bilan ushlab kurashadilar. Kurash musobaqalari o'tkaziladigan maydon doira shaklida bo'lib, unga to'shak tashlanadi. Farg'onacha kurash usuli klassik usul bo'lib, kuch bilan yengish usuli sanaladi. Unda raqiblar bir-birlarini kuch ishlatib, ikkala oyog'ini to'shakdan uzib, so'ng xohlagan tomonga yiqitishi mumkin. Bu kurash turida chalish, qayirish, yonboshga olib ko'tarish, yelkadan oshirish kabi usullar taqiqlanadi¹⁴. Raqiblar olishuv paytlarida qo'llarini qo'yib yuborishi ham mumkin emas.

Kurashning buxorocha usuli Zarafshon vohasi, Qashqadaryo, Surxon vohasi, Janubiy Turkmaniston, Janubi-g'arbiy Tojikiston, Shimoliy Afg'oniston hududlarida keng tarqalgan usul sanaladi. Buxorocha kurashda polvonlar kalta to'n kiyib belbog' bog'lab kurashadilar. Bu usul erkin kurashni eslatadi. Unda chalish, qayirish yelkadan qayirib tashlash, boshdan oshirib otish singari usullarga ruxsat etiladi. Buxorocha kurashda raqiblar bir-birlarining belbog'laridan ushlab kurashishlari shart emas. Bunda raqibning kuraklarini yerga bir zum tekizib turgan polvon g'olib sanaladi.

Surxon vohasida polvonlar tayyorlaydigan maktablar bo'lgan. Ana shunday maktablardan biri Sherobod tumanidagi tog'li Bog'lidara qishlog'ida bo'lgan. Bu maktabda tarbiya topgan tangidevonlik Erdona mergan Abdolbek o'g'li – (XVIII asr) mashhur mergan, chavandoz va polvon bo'lgan¹⁵. Shu maktabning vakili Tursunnozim polvon Qurbonyor o'g'li (XIX asr ikkinchi yarmi – 1926) Sherobod begining mohir polvonlaridan biri bo'lib, to'y va sayllarda o'tkazilgan kurash musobaqalarida doimo mutloq g'olib bo'lib kelgan. Bu polvonning bo'yi ikki metr dan ortiq bo'lgan¹⁶.

Chori polvon Eshpo'lat o'g'li (1890-1941) ham kuragi yerga tegmagan alp bo'lgan. XX asrda Surxon vohasining eng mashhur polvonlaridan biri bo'lgan. Boysun va Sherobod bekliklarida bo'lib o'tadigan kurash musobaqalari Chori polvonsiz o'tmas edi. Chori Eshpo'latov yosh polvonlarni tayyorlash uchun Bog'lidaraga kirish joyida katta-kichik bir nechta tosh qo'ydirgan. O'zini polvon deb bilgan kishi shu toshlardan birini ko'tarib, tokcha ustiga qo'yishi shart edi. Eng katta tosh 180 kg bo'lib, Chori polvon toshi deyiladi. Bu toshni Chori polvondan

¹² Тошпулатов Ж. Ўзбек кураши. – Тошкент, 2005. – Б.258.

¹³ Рўзиев А.Н., Азизов Н. Ўзбек миллий бел олиш кураш тарихидан. –Тошкент: Фан ва технология, 2010. – Б. 220.

¹⁴ Тошпулатов Ж. Ўзбек кураши. – Тошкент, 2005. – Б. 258.

¹⁵ Умаров И., Рахмонов Х., Худойбердиев Э. Сурхон воҳасида этник тарих ва этномаданий жараёнлар (хатакилар уруғи мисолида). –Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2014. – Б. 211-212.

¹⁶Турсунов С., Пардаев Т., Турсунов А., Тоғаева М. Ўзбекистоннинг жанубий ҳудудларида номодий маданият тарихи. –Тошкент: Мухаррир, 2012. –Б. 151–152.

tashqari, faqat Qurbonyor o'g'li Tursunnozim polvon ko'tara olgan. Qolgan toshlar o'rtacha 120-150 kg atrofida bo'lgan. Tursunnozim polvon mashq qiladigan tosh oz emas, ko'p emas naq sandiqdek kelgan.

Chori polvonning nevarasi Abdol polvon Jo'rayev (1930–2004) bobosi izidan bordi. Surxondaryo birinchiligida Mengziyo polvonni kurashda mag'lub etib, viloyat chempioni bo'ldi. O'rta Osiyo respublikalari o'rtasida o'tkazilgan kurashda faxrli ikkinchi o'rinni egalladi. 1956 yilda Moskva shahrida bo'lib o'tgan jahon yoshlari sport festivalida mutloq chempion bo'lgan¹⁷. Abdol Jo'rayev surxondaryolik polvonlar orasidan yetishib chiqqan birinchi jahon chempionidir.

Ushbu maktabning yana bir dovrug'li polvoni Davlat Berdiali o'g'lidir (1890-1962). Davlat polvon Sherobodning G'oz qishlog'ida tug'ilgan, kasbi cho'pon bo'lgan. Davlat polvon el orasida Davman (Devman) polvon nomi bilan mashhur bo'lgan¹⁸. Davman polvon kattagina polvontoshni yelkadan oshirib mashq qilgan. XX asrning 10 yillarida beklikda mashhur polvon darajasiga erishgan. 1916 yili Balxda Buxoro, Hindiston, Eron va Afg'oniston polvonlarining bellashuvi bo'lib o'tgan. Ushbu bellashuvda afg'onlarning "yengilmas" deb nom chiqargan polvonini mag'lub qilgan. Shunda afg'on polvoni janjal chiqargan. Lekin xaloyiq Davman polvonni himoya qilib uni kechasi Amudaryodan o'tkazib yuborishgan¹⁹.

Mustaqillik yillarida mashhur polvon Haqberdi Norboyev tashabbusi bilan 2002 yil fevral oyida Surxondaryo viloyatining Jarqo'rg'on tumanida "Haqberdi Norboy o'g'li" kurash klubiga asos solindi. Dastlab klubga 25-30 nafar bolalar shug'ullanishga kela boshladi. Asta-sekin klub el og'ziga tushdi. Tez orada klub a'zolari soni osha borib, 193 nafarga yetdi. Jami 12 ta guruh – 4 ta tayyorlov, 2 ta o'quv sport malakasini oshirish guruhi, 2 ta qizlar guruhi va qo'shimcha 3 ta badiiy gimnastika guruhida mashg'ulotlar olib borildi.

Dissertasiyaning **"Mustaqillik yillarida o'zbek milliy kurashining jahon sport turiga aylantirish omillari"** nomli ikkinchi bobida milliy kurashning jahon sport turiga aylantirish masalalari, rivojlantirish muammolari va uning yechimlari hamda o'zbek milliy kurashi bilan bog'liq turnirlarning tashkil etilishi kabi masalalar o'rganiladi.

O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligining ilk yillarida milliy kurashimizni yanada rivojlantirish va uni xalqaro maydonda tan oldirish masalasi kun tartibiga ko'tarildi. 1992 yilda milliy kurashimiz fidoyisi Komil Yusupov O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I.Karimovning qabulida bo'ldi. Bo'lib o'tgan suhbat chog'ida o'zbek kurashini nafaqat ona diyorimizda, balki chet ellarda ham rivojlantirish, keyinchalik esa olimpiada o'yinlari dasturiga kiritish masalalari muhokama qilindi. Natijada, 1992 yilda O'zbekiston kurash federasiyasining tashkil etilishi muhim ahamiyat kasb etdi.

Kurash faolarining sa'yi-harakatlari bilan 1992 yildan boshlab Janubiy Koreya, Kanada, Yaponiya, Hindiston, AQSH, Monako va Rossiyada o'zbek

¹⁷ Умаров И., Рахмонов Х., Худойбердиев Э. Сурхон воҳасида этник тарих ва этномаданий жараёнлар... –Б. 213.

¹⁸ Норбоев Х. Сурхон полвонлари. Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти. 2010. – Б. 95.

¹⁹ Турсунов С., Пардаев Т., Бегимкулов О. Ўзбек миллий кураши. –Б. 44.

kurashini tanitishga qaratilgan qator nufuzli sport anjumanlari o'tkazildi²⁰. Komil Yusupovning o'zi «Kurash» va «Kurash xalqaro qoidalar, texnikasi va taktikasi» kitoblarini chop ettirdi. Uning ishtirokida kurash va belbog'li kurashning xalqaro qoidalarini ishlab chiqildi. Kurashimizga “tanishing”, “ta’zim”, “o’rtaga”, “kurash”, “to’xta”, “halol”, “yonbosh”, “chala”, “tanbeh”, “dakki”, “g’irrom”, “bekor”, “vaqt” kabi o'zbek jummalari qoidalar kiritildi²¹.

1998 yilning 6 sentyabrida Yevropa, Osiyo va Amerikaning 28 davlati milliy federasiyalarni uyushtirgan Xalqaro Kurash Assosiasiyasi ta'sis etildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov XKAning Faxriy Prezidenti lavozimiga saylandi. Uning Prezidenti etib Komil Yusupov saylandi. Tashkilot ijroiya qo'mitasi 15 kishidan iborat bo'lib, qo'mita a'zolari XKA kongressi tomonidan ko'pchilik ovoz asosida to'rt yil muddatga saylandi. Komil Yusupov bu lavozimda 16 yil (1998-2014) ishladi.

Kurash xalqaro assosiasiyasi tashkil etilgan 1998 yilning 6 sentyabrida Toshkent shahrida bo'lib o'tgan kurash bo'yicha birinchi xalqaro musobaqalarda dunyoning 28 mamlakati vakillari ishtirok etdilar. O'zbekiston Prezidenti sovrini tikilgan birinchi xalqaro musobaqa muvaffaqiyatli o'tdi. Turk sportchisi Salim Tataroglu musobaqa g'olibi bo'ldi²².

1999 yil 1 may kuni Toshkentda shahridagi «Yunusobod» tennis saroyida O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov ishtirokida kurash bo'yicha birinchi jahon chempionatining ochilish marosimi o'tkazildi. Unda jami 48 ta davlat, shu jumladan, Avstraliya, AQSH, Kanada, Boliviya, Chili, Yevropa Ittifoqi, Boltiqbo'yi va MDH davlatlaridan kelgan vakillar qatnashishdi²³. Bellashuvlarda barcha uchta vaznda ham yurtimiz polvonlari Akobir Qurbonov (73 kg) Kamol Murodov (90 kg) va mutloq birinchilikda Toshtemir Muhammadiyevlar birinchi jahon chempionlari deb e'lon qilindi.

Kurash bo'yicha jahon birinchiligi Toshkentda, ikkinchisi Antaliyada, uchinchisi Budapeshtda, to'rtinchisi Yerevanda, beshinchisi yana Toshkentda, oltinchisi Ulan-Batorda, yettinchisi Alushta shahrida bo'lib o'tdi²⁴. Bunday yirik musobaqalarda o'zbekistonlik polvonlardan Akobir Qurbonov, Kamol Murodov, Toshtemir Muhammadiyev, Maxtumquli Mahmudov, Baxrom Avazov, Isoq Ahmedov, Furqat Mamatov, Ramziddin Saidov, Abdulla Tangriyevlar jahon birinchiliklarining oltin medalini qo'lga kiritdilar.

2011 yilning 14 iyulida Yaponiya poytaxti Tokio shahrida bo'lib o'tgan Osiyo Olimpiya kengashining yubiley XXX Bosh Assambleyasida “Kurash” xalqaro assosiasiyasi rahbariyati ham ishtirok etdi va milliy sport turi 2013 yili Janubiy Koreyaning Incheon shahrida yopiq sport inshootlarida va jangovar san'at

²⁰ Ўзбек кураши довруғи. – Тошкент: Шарқ нашриёти. 2002. – Б. 86.

²¹ <http://idum.uz/ru/archives/4900>

²² Тошпулатов Ж. Ўзбек кураши. – Тошкент, 2005. – Б. 258.

²³ <https://uz.denemetr.com/docs/769/index-89742-1.html?page=4>

²⁴ Турсунов С.Н., Пардаев Т., Бегимкулов О. Ўзбек миллий кураши тарихи ва анъаналари. – Термиз: “Сурхон нашр” нашриёти. 2015. – Б. 204.

turlari bo'yicha tashkil etilgan IV Osiyo o'yinlari dasturidan o'rin egallagani rasman e'lon qilindi²⁵.

O'zbek kurashini dunyoga targ'ib qilishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sovrini uchun o'tkazilgan xalqaro turnirlarning o'rni juda yuqori bo'ldi. Ana shunday turnirlar 2022 yilda Germaniya, Bolgariya, Turkiya, Fransiya davlatlarida bo'lib o'tdi.

Kurash bilan birga uning belbog'li kurash turi ham rivojlana boshladi. 1999 yilning iyulida Rossiyaning Yoshkar-Ola shahrida belbog'li kurash bo'yicha jahon chempionati o'tkazildi. Unda qatnashgan O'zbekiston terma jamoasi a'zolari Sh.Xayruddinov, B. Gegaliyev, D. Niyozboyevlar Chirchiq olimpiya zaxiralari kolleji tarbiyalanuvchilari hisoblanishadi²⁶.

Kurashning ushbu turini yanada ommalashtirish va jahon miqyosida olib chiqish maqsadida 2001 yilda O'zbekiston belbog'li kurash federatsiyasi tashkil etildi. Belbog'li kurashni jahon miqyosida targ'ib qilish uchun 2021 yilning 27 sentyabrda Litva Respublikasining Vilnyus shahrida Jahon belbog'li kurash assosiasiyasi (JBKA) tashkil etildi. Ushbu sport tashkiloti rasman Yevropa Ittifoqi ro'yxatidan o'tkazildi. Uning Prezidenti etib Azizbek G'aniyev, litvalik Gintautas Vileyta prezident maslahatchisi sifatida, Arturas Vileyta esa assosiasiya bosh kotibligiga saylandilar. Shu kuni Yevropa belbog'li kurash federatsiyasi prezidentligiga isroillik Piter Ben Rozin, Osiyo belbog'li kurash konfederatsiyasi raisi lavozimiga Mo'minxo'ja Mannopovich Muratov saylanishdi²⁷.

2022 yil 4 may kuni yana bir muhim voqea sodir bo'ldi. Braziliyaning San-Paulu shahrida Jahon belbog'li kurash assosiasiyasining (JBKA) navbatdagi ta'sis kongressida Panamerika belbog'li kurash federatsiyasi tashkil etildi. Uning prezidenti etib, braziliyalik Xoze Jildemar Klementino De Karvalyu saylandi. Janob dye Karvalyu belbog'li kurashlar bo'yicha 6-DAN sohibi, murabbiy, 600 nafar sportchiga ega "ADSA" akademiyasi prezidentidir. Braziliyalik Markos Xose Xungaro vise-prezident lavozimini, bosh kotib etib Joao Shiffer saylanishdi²⁸.

Shu bilan birga kurashni rivojlantirishda talaygina muammolar yig'ilib qolgan bo'lib, ularga quyidagilarni ko'rsatishimiz mumkin:

1. Kurash bilan shug'ullanish uchun kerakli moddiy-texnik baza va sport infratuzilmasining yetarli emasligi;
2. Kurash xalqaro assosiasiyasi va O'zbekiston kurash federatsiyasining tizimli moliyalashtirish manbalari mavjud emasligi;
3. Sportni ushbu turini yanada ommalashtirish va rivojlantirish bo'yicha maxsus dastur ishlab chiqilmaganligi;
4. O'zbekistonda va dunyo miqyosida malakali kurash trenerlari hamda hakamlarini tayyorlash tizimi mavjud emasligi;

²⁵ Турсунов С.Н., Пардаев Т., Бегимкулов О. Ўзбек миллий кураши тарихи ва анъаналари. – Термиз: “Сурхон нашр” нашриёти. 2015. – Б. 204.

